

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

AXMADJONOV PARVIZJON MAXAMADZODA

SAYF FARG‘ONIYNING ADABIY MEROSI VA UNING POETIK TADQIQI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti (tojik tili va tojik adabiyoti)

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Axmadjonov Parvizjon Maxamadzoda

Sayf Farg‘oniyning adabiy merosi va uning poetik tadqiqi.....3

Akhmadjonov Parvizjon Makhamadzoda

Literary heritage of Saif Farghani and his poetic research.....27

Ахмаджонов Парвизжон Махамадзода

Литературное наследие Сайфа Фергани и исследование его поэтики.....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....55

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

AXMADJONOV PARVIZJON MAXAMADZODA

SAYF FARG‘ONIYNING ADABIY MEROSI VA UNING POETIK TADQIQI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti (tojik tili va tojik adabiyoti)

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2PhD/fil2504 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezюме)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifaning (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Isomiddinov Farhod

filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Rasmiy opponentlar:

Matlubai Mirzoyunus (Xojayeva)

filologiya fanlari doktori, professor

Xo'jaqulov Sirojiddin Xolmaxmatovich

filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03.12.2019.Fil.10.00.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 27 mart soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Telefon: +99873 244-57-82; e-mail: fardu_info@gmail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (472 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Telefon: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 11 mart kuni tarqatildi.

(2025-yil 11 mart dagi 11 raqamli reyestr buyuznomasi).



S.M.Muminov

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol. f.d., professor

M.T.Zokirov

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol. f.n., professor

A. G. Sabirdinov A.G.Sabirdinov

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filol. f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo adabiyotshunosligida buyuk Sharq allomalari badiiy tafakkurning rivoji va takomillashuviga, insoniyatning ma'naviy kamoloti va ma'rifatiga qo'shgan hissasi bilan alohida o'rin tutadi. Ular ma'naviy merosidagi umuminsoniy g'oyalarni axloqiy qadriyat sifatida yoshlar ongiga singdirish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir. Shu bois mumtoz adabiyot an'alaridan bugungi kunning madaniy, adabiy va tarixiy qadriyatlarni tiklash jarayonida foydalanish, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy kamolotini rivojlantirishda qo'llash alohida ahamiyatga ega. Jumladan, Sharq xalqlarining buyuk mutafakkiri Sayfiddin Muhammad Farg'oniyning bosib o'tgan hayot yo'li, adabiy merosi hamda insonni komillikka yetaklovchi ma'naviy-ma'rifiy, diniy-irfoniy, falsafiy-axloqiy va tasavvufiy qarashlari asosida yoshlarni barkamollik, insonparvarlik mehr-muruvvat, saxovat kabi gumanistik g'oyalar asosida tarbiyalash dolzarblik kasb etmoqda. Xorijiy adabiyotshunoslikda ham Sharq adabiyoti vakillari va ularning ma'naviy merosini tadqiq etish, qo'lyozma asarlarini nashr qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Jahon adabiyotshunosligida ilm-fan taraqqiyoti tarixiga ulkan hissa qo'shgan Sharq mutafakkirlarining ilmiy faoliyati, ular yaratgan boy ma'naviy merosini ijtimoiy hayot sohalariga joriy etishga alohida e'tibor qaratib kelinganligi diqqatga sazovordir. Xususan, o'tgan asrlarda yashab o'tgan ijodkorlar asarlaridagi ezgu g'oyalarni bugungi davrning madaniy-ma'naviy ehtiyojlariga xizmat qildirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, badiiy asarning poetik xususiyatlari, tasviriy hamda ifoda vositalari, adabiy turlar va janrlarini chuqur o'rganish adabiyotshunoslik fanining asosiy masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda buyuk ajdodlarimizning adabiy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va ularni yosh avlod vakillari orasida targ'ib qilish, shu orqali yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalab, kelajagimiz bunyodkorlari etib shakllantirish bo'yicha keng chora-tadbirlar va islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu xususda Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim".¹ Yangi O'zbekistonda milliy adabiyotimizni o'rganish, tadqiq va targ'ib etishga qaratilgan e'tibor kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasining asosiy mazmun-mohiyati inson manfaatlarini ulug'lash: "Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat" degan mushtarak g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Biz bu g'oyalarni yangi Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirishimiz zarur".² Shu ma'noda XIII asrda yashab ijod qilgan Sayfiddin Muhammad Farg'oniyning adabiy merosini keng doirada o'rganish, u tomonidan ilgari surilgan g'oyalarning asl mazmun-mohiyatini bugungi kun nuqtayi nazaridan o'rganish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-noyabrdagi PF-5847-son

¹ Мирзиёев Ш.М. Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир // Халқ сўзи. 1 октябрь 2020 йил. -№207 (7709)

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 21.12.2022. <https://www.xabar.uz/jamiyat/>

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil-13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2018-yil 12-maydagi PQ-3721-son “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligi tarixida va bugungi kunda Sayf Farg‘oniyning hayoti va faoliyatini ilmiy jihatdan keng qamrovli yoritib bera oladigan tadqiqot ishi amalga oshirilmagan. Sayf Farg‘oniy hayotligida va undan keyingi davrlarda yozilgan ko‘pgina tarixiy manbalar, jumladan, tazkiralarda u haqida yetarlicha ma’lumotlar mavjud emas. Faqat Abulqosim Kozaruniy “Sullam-us-samovot”³ tazkirasida Sayf Nishopuriy va Sayf Isfarangiy bilan bir qatorda Sayf Farg‘oniy nomini ham keltirib, Sayf Isfarangiyning she‘rlariga baho berib o‘tgan va mashhur tarixchi Fuvotiy 660/1261-62-yilda o‘zining “Talxis majmua al-adab fi-mu‘jam al alqob” (“Har xil laqab-taxallusli adiblar to‘plamining xulosasi”) asarida Sayfiddin Muhammad Farg‘oniyning taniqli shoirlardan biri bo‘lganligini aytgan xolos.⁴

Xorijiy mamlakatlarda ham Sayf Farg‘oniy shaxsi, ilmiy-ijodiy faoliyati, ma’naviy merosi tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Sayf Farg‘oniy haqidagi ilk tadqiqotlar turk olimi Ahmad Otashning Turkiya kutubxonalarida Sayf Farg‘oniy devoni nusxalari borligini o‘z maqolasida e‘lon qilganligidan keyin (1959-y) boshlandi.⁵

Eron adabiyotshunosligida Zabeululloh Safo, Zahro Dari, Zaynab Hodiyy, Qadamaliy Saramiy, Zahro Shayxi, Sayid Muhammad Turobiy, Abulqosim Rodfar, Zahro Porsopurlar⁶ tomonidan Sayf Farg‘oniy ijodining muayyan bir jihatini

³ Kozaruniy A. Sullam-us-samovot. Rossiya Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo‘limi xazinasining yozma nusxasi, 684-raqam. 91-92-varaq.

⁴ Ахмедов Б. Сайфуддин Мухаммад Фарғоний. – Тошкент: Қизил Ўзбекистон, Правда Востока ва Ўзбекистони Сурх бирлашган нашриёти, 1962. – Б. 3.

⁵ Ates A. Anadolunin unutulmus buyuk bir sairi: Sayf al-Din Muhammad al-Fargani // Turk tarih kurumu belleten. – Anqara, 1959. – S. 434.

⁶ ذبيح الله صفا. تاريخ ادبيات در ايران. تهران: انتشارات فردوسی، 1369. صحيفة 705. زهرا درى، زينب هادى. (1389). ابعاد مختلف نقد اجتماعى در ديوان سيف الدين محمد فرغانى. پژوهش نامه ادبيات تعليمى (پژوهشنامه زبان و ادبيات فارسى)، 2(5)، 119-146. سزائى قدمعلى،

yoritishga qaratilgan tadqiqotlarini kiritish maqsadga muvofiq. Bu tadqiqotlarning ilmiy va nazariy jihatdan qimmati shundaki, ularda Sayfning shoirlik faoliyati hamda lirik merosining mazmun-mohiyati to'g'risida munosabat bildirilgan bo'lib, fors-tojik adabiyoti tarixida muhim o'rin tutuvchi bu adabiy siymoning faoliyatini tadqiq etishdagi dastlabki urinishlardir.

O'zbek va tojik adabiyotshunosligida Sayf Farg'oniyni ilmiy merosini o'rganishga katta e'tibor berildi. Uning hayoti, ilmiy merosi to'g'risida ilmiy izlanishlar A.Afsahov, B.Ahmedov, M.Madg'oziyev, H.Yusupov, M.Mamatov, M.Maqsudova, G.Sharifova, H.Homidiy, R.Hodizoda va boshqalar⁷ tomonidan amalga oshirilgan. Bu ilmiy izlanishlar Sayf yashagan davr adabiy va ilmiy muhiti, zamondoshlari hayoti va ijodini o'rganishda hamda mazkur davr madaniy hayotining ajralmas bo'lagi sanalgan Sayf Farg'oniyni shoirlik faoliyatini hamda uning Sharq adabiyotidagi o'rnini chuqurroq tushunishimizga zamin yaratadi va zarur ma'lumotlarni beradi.

Shu bilan birga XIII va XIV asr fors-tojik adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Sayf Farg'oniyni hayoti va ijodiy faoliyati yaxlit va keng planda o'rganilmaganligi, adabiyotshunoslik fani nuqtayi nazaridan maxsus tadqiq etilmaganligi mazkur dissertatsiyaning ilmiy ahamiyatini ko'rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Mumtoz adabiyot muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotimizdan maqsad Sayf Farg'oniyni hayoti va ilmiy-adabiy merosini o'z davri adabiy jarayoni bilan bog'liq holda o'rganish va shu nuqtayi nazardan shoirning Sharq adabiyotida tutgan o'rnini masalasiga oydinlik kiritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XIII asrda Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy jarayon, adabiy-madaniy muhit va unda Sayf Farg'oniyni hayoti yo'lini sharhlash;

Sayf Farg'oniyni qizg'in ijodiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini va u yashagan davr adabiy muhitini manbalarga asoslanib tahlil qilish;

Sayf Farg'oniyni mansub bo'lgan adabiy muhitning mavzular ko'lami va g'oyaviy-falsafiy tizimi hamda salafilar va zamondosh ijodkorlarning Sayf Farg'oniyni ijodiga ta'siri masalasini tadqiq etish;

Sayf Farg'oniyni devonini adabiyot tarixi bo'yicha qimmatli materiallar bera

رفاعی دیار. سیف فرغانی و انتقادهای اجتماعی. فصلنامه علمی عرفانیات در ادب فارسی. ۱۳۹۱: ۳ (۱۲): ۲۸-۱۱. زهرا شیجکی، حبیب جدیدالاسلامی قلعه نو، و بهروز رومیانی، "سیمای نبوی پیامبر اسلام (ص) در دیوان اسماعیل اصفهانی و سیف فرغانی،" پژوهش های اعتقادی کلامی (علوم اسلامی)، 9، vol. 35، no. 121، pp. سیف فرغانی، محمد، قرن 8ق. برگ خزان دیده: گزیده اشعار سیف فرغانی / مقدمه ذبیح الله صفا؛ انتخاب و توضیح محمد ترابی. تهران: سخن، 1375. 356 ص. سیف الدین محمد فرغانی. گزیده اشعار سیف فرغانی: شاعر قرن هفتم و هشتم / به کوشش ابوالقاسم رانفر. تهران: موسسه انتشارات امیر کبیر، 1365. 106 ص زهرا پارساپور. سیف، شاعری صوفی و نقادی بی پروا. تفسیر و تحلیل متون زبان و ادبیات فارسی (دهخدا) مقاله 3، دوره 2، شماره 4، شهریور 1389، صفحه 67-86.

⁷Афсахов А. Сайфи Фарғонӣ. – Душанбе: Дониш, 1976; Аҳмедов Б. Сайфуддин Муҳаммад Фарғоний. – Тошкент: Қизил Ўзбекистон, Правда Востока ва Ўзбекистони Сурх бирлашган нашриёти, 1962; Мағозиев М, Юсупов Х. Шайх Саъдий Шерозийнинг фарғоналик дўсти. 1994; Маматов М. Муҳаммад Сайфи Фарғоний ижодида тасаввуф тамойиллари. // Марказий Оснѐ фалсафий тафаккури тараққиѐтида тасаввуф таълимотининг ўрни ва аҳамияти. – Бухоро, 2022; Маматов М. Сайфиддин Муҳаммад Фарғоний // Мозийдан садо илмий-амалий, маънавий-маърифий журнали. – Тошкент, №1 (69), 2016; Мақсудова М. Шарҳи ишқ ва аҳволи ошиқ дар ғазалиѐти Сайфи Фарғонӣ // Endless light in science, (май), (2023); Шарифова Г. Сайфи Фарғонӣ – подшохи мулки суҳан. – "Овози тоҷик", №30 2023; Ҳомидий Х. Мазлумлар кўз ѐши оташ // Кўҳна Шарқ дарғалари: Бадиий-илмий лавҳалар. – Тошкент: Шарқ, 1999; Ҳодизода Р. Таърихи адабиѐти асрҳои XII-XIV. – Душанбе: Дониш, 1975.

oladigan muhim adabiy manba sifatida o'rganish;

Shoir adabiy merosining g'oyaviy-falsafiy xususiyatlari, janrlar hamda badiiy mahorat masalalarini tahlil qilish asosida uning XIII asr adabiyotidagi mavqeyini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sayf Farg'oniyning Istanbul universiteti kutubxonasida F171 raqami bilan saqlanayotgan devon nusxasi hamda Anzor Afsahov tomonidan 1978-yil Dushanbeda, sharqshunos olim Zabehulloh Safo tomonidan 1986-yil Tehronda va Ibrohim Naqqosh tomonidan 2023-yil Dushanbeda nashr qilingan "Devon"lari asos qilib olindi.

Tadqiqotning predmetini Sayf Farg'oniyning "Devon"ida mavjud ilmiy-nazariy, falsafiy va adabiy xususiyatlarni davr adabiyotshunosligi nuqtayi nazaridan tadqiq qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy-tahliliy, qiyosiy-tipologik, statistik, matn tahlili, qisman avtobiografik tavsiflash kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sayf Farg'oniyni hayoti va ijodidagi dolzarb muhim masalalar, jumladan, u yashagan davr, qoldirgan lirik merosi va adabiy-estetik qarashlari, adabiy hamda tarixiy manbalar (qo'lyozma asarlar, manbashunoslik tadqiqotlari, davr hujjatlari) vositasida asoslangan;

ma'no va mazmun nuqtayi nazaridan Sayf Farg'oniyni she'riyatida uning dunyoqarashi, ijtimoiy, ilmiy-falsafiy qarashlari ifodalanganligi, adabiy janrlarning shakl va tuzilishiga hech qanday o'zgartirish yoki yangilik kiritmaganligi, o'zidan oldin ijod qilgan shoirlarning an'alarini davom ettirganligi dalillangan;

Sayf Farg'oniyni qasida yozishda, asosan, Sanoiy, Hoqoniy, Anvari va Sa'diy Sheroziydan ilhomlanganligi, uning qasidalarida, asosan, tabiat va atrof-muhit tasviri, axloqiy fikrlar bilan bir qatorda davrning ijtimoiy holati, xususan, zahmatkash xalqning hayoti aks etganligi, Sayf Farg'oniyni qasida janrining xalqchil bo'lishidagi xizmatlari aniqlangan;

shoir she'riyatining go'zalligi uning mazmun va ma'no yaratishda tashbeh, talmeh, istiora, mubolag'a va boshqa badiiy san'at turlaridan mohirona foydalanganligi, badiiy san'atlar orqali teran ma'nolar yaratishiga "Qur'on" oyatlari hamda hadislardan bahramand bo'lganligi, shuningdek, "Zabur", "Tavrot", "Injil" kabi muqaddas kitoblar zamin bo'lib xizmat qilganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sayf Farg'oniyni devonining turli nusxalari va saqlanish joylari aniqlangan;

shoir ijod namunalarining g'oyaviy yo'nalishlariga muayyan baho berilgan;

Sayf Farg'oniyni mahoratli shoir va yetuk adabiyotshunos sifatida XIII asr fors-tojik adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni ko'rsatilgan;

Tadqiqot natijalaridan adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiyotshunoslik, she'rshunoslik fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqola va dissertatsiyalar yaratishda manba sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyalarini yozishda, ma'ruza materiallarini tayyorlashda va o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning to'g'ri qo'yilganligi, ilmiy muammoning o'rganilish chegaralari aniq belgilanganligi, xulosalar ilmiy asoslanganligi, tahlillar ilmiy-tahliliy, qiyosiy-tipologik, statistik, matn tahlili,

qisman avtobiografik tavsiflash vositasida olib borilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, tahlil jarayonida mumtoz va zamonaviy adabiyot tabiatidan kelib chiqilganligi, natijalarning vakolatli davlat muassasalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tajribaga asoslangan bilimlar asosida mamlakatimizda yuksak ma'naviyatli yetuk kadrlar tarbiyasi uchun buyuk allomalarning madaniy-ma'naviy hamda ilmiy-nazariy merosi, jumladan, Sayf Farg'oniy ma'naviy ijodi, unda ilgari surilgan falsafiy g'oyalar, inson hayoti va taqdiri, ijtimoiy adolat haqidagi qarashlar yoritilgan ilmiy xulosalardan Sharq mumtoz adabiyoti poetikasi, adabiyot tarixi, adabiyotshunoslik, tasavvuf va falsafa tarixi yo'nalishlaridagi tadqiqotlarda nazariy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlarida ta'lim dasturlari va vositalarini tayyorlashda, mumtoz adabiyot, adabiyotshunoslik, tasavvuf sohalariga oid izohli lug'atlar yaratishda, adabiyotshunoslik va tasavvuf tarixiga bag'ishlangan maxsus kurslarni tashkil etishda, "Mumtoz adabiyot tarixi", "Adabiyot nazariyasi", "She'rshunoslik" kabi fanlar uchun o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sayf Farg'oniyning adabiy merosi va uning poetik tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy xulosa va natijalar asosida:

Sayf Farg'oniy hayoti va ijodidagi dolzarb muhim masalalar, jumladan, u yashagan davr, qoldirgan lirik merosi va adabiy-estetik qarashlari xususidagi xulosalaridan Bobojon G'afurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti talabalari uchun tojik va o'zbek adabiyoti tarixi fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda, magistr va doktorantlarning adabiy tanqid, adabiy aloqalar, she'rshunoslik nazariyasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanilgan (akademik Bobojon G'afurov nomidagi Xo'jand davlat universitetining 2024-yil 6-sentabrdagi 01/4667-son ma'lumotnomasi). Natijada Sayf Farg'oniyning adabiy merosini chuqur anglash, uning ijodiy uslubini o'rganish va uni zamonaviy adabiyotshunoslik hamda ta'lim jarayonlariga tatbiq etishga zamin yaratildi;

ma'no va mazmun nuqtayi nazaridan Sayf Farg'oniy she'riyatida uning dunyoqarashi, ijtimoiy, ilmiy-falsafiy qarashlari ifodalanganligi, adabiy janrlarning shakl va tuzilishiga hech qanday o'zgartirish yoki yangilik kiritmaganligi, o'zidan oldin ijod qilgan shoirlarning an'analarini davom ettirganligiga doir xulosalaridan 2022-2023-yillarga mo'ljallangan AL-FDU2022307-010 raqamli "Lingvistik tahrir va tarjimashunoslik" ilmiy-tadqiqot markazida "Antiplagiat" dasturini amaliyotga joriy etishda, ilmiy-amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2025-yil 9-yanvardagi 04/118-son ma'lumotnomasi). Natijada "Antiplagiat" dasturini amaliyotga joriy etish jarayonida hamda tarjimashunoslik va lingvistik tahrir bo'yicha ilmiy-amaliy loyihalarni samarali amalga oshirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan;

Sayf Farg'oniy qasida yozishda, asosan, Sanoiy, Hoqoniy, Anvariy va Sa'diy Sheroziylardan ilhomlanganligi, uning qasidalarida, asosan, tabiat va atrof-muhit tasviri, axloqiy fikrlar bilan bir qatorda davrning ijtimoiy holati, xususan, zahmatkash xalqning hayoti aks etganligi, Sayf Farg'oniy qasida janrining xalqchil bo'lishidagi xizmatlari haqidagi xulosalaridan 2021-2024-yillar mobaynida tayyorlab, "So'x" televideniya tojik tilida efirga uzatilgan maxsus ko'rsatuvlarda

amaliyotga joriy etilgan (Farg‘ona viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 6-sentabrdagi 176-son ma‘lumotnomasi). Natijada efirga uzatilgan maxsus ko‘rsatuvlar tinglovchilarning badiiy tafakkuri, falsafiy qarashlari hamda mumtoz adabiyot borasidagi bilimlarining shakllanishiga xizmat qilgan;

shoir she‘riyatining go‘zalligi uning mazmun va ma‘no yaratishda tashbeh, talmeh, istiora, mubolag‘a va boshqa badiiy san‘at turlaridan mohirona foydalanganligi, badiiy san‘atlar orqali teran ma‘nolar yaratishiga “Qur‘on” oyatlari hamda hadislardan bahramand bo‘lganligi, shuningdek, “Zabur”, “Tavrot”, “Injil” kabi muqaddas kitoblar zamin bo‘lib xizmat qilganligi yuzasidan asoslangan ilmiy-amaliy natijalari, umumiy xulosa va to‘plangan tajribalaridan Respublika tojik milliy-madaniy markazi Farg‘ona viloyat bo‘linmasi tomonidan Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti tojik tili yo‘nalishi talaba-yoshlari hamda Farg‘ona viloyatida yashovchi tojik millati vakillari orasida o‘tkazilgan o‘quv mashg‘ulotlari, davra suhbatlari, turli targ‘ibot tadbirlari va anjumanlarda hamda 2022-yil 20-iyundan 20-dekabrgacha amalga oshirilgan “Do‘stlik – osoyishtalik garovi” mavzusidagi 1-raqamli amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Respublika tojik milliy-madaniy markazi Farg‘ona viloyat bo‘linmasining 2023-yil 14-noyabrdagi 56-son ma‘lumotnomasi). Natijada xalqlar o‘rtasidagi milliy-madaniy rishtalar, do‘stlik va diniy bag‘rikenglik mustahkamlangan, ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida, jumladan, 2 ta respublika hamda 5 ta xalqaro konferensiyada ma‘ruza ko‘rinishida bayon etilgan va abrobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, ularning 3 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 159 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad, vazifalari, obykti, predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Sayf Farg‘oniy hayoti, adabiy faoliyati va ijodiy merosi**”ga bag‘ishlanib, uning “**Sayf Farg‘oniy yashagan davr voqeligi va ijtimoiy-siyosiy muhit**” deb nomlangan ilk faslida shoir yashagan davrdagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy vaziyat qisqacha tavsiflanadi.

XII-XIII asrlar oxirida Somoniylar davrida rivojlangan madaniy, adabiy va ilmiy markazlar vayron bo‘lgan va bo‘sh qolgan. Chingiziylar O‘rta Osiyo hududlariga kirishi bilan shaharlarni talon-taroj qilib, xalqni boshpanasiz qilib

qo'yishdi, mo'g'ul qo'shinini madrasa va masjidlarga joylashtirdi. "Jome'-ut-tavorix" sohibi Rashiduddin yozishicha, mo'g'ullar qo'lyozma kitoblar bilan to'la sandiqlarni bo'shatib, otlari uchun oxurlar yasashgan, ziyofatlarni masjidlarda uyushtirgan, sozanda va raqqosalarni kuyga qo'yib, otlarni qo'riqlashni mashhur olimlar, nufuzli shayxlarga buyurgan.⁸ Shahardagi talonchilik va tartibsizlik yong'inlarga sabab bo'ldi. Tarixchi Mirxond bu vahshiylikni quyidagicha ta'riflagan: "Chingizxon shaharga o't qo'yishni buyurdi va binolarning ko'pi yog'ochdan bo'lgani uchun bir kunda yonib ketdi, pishiq g'ishtdan qurilgan masjid va ba'zi uylar qolgan".

Bu qo'zg'alishlar natijasida bir tomondan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayot tanazzulga yuz tutdi, madaniy, adabiy asarlar, qimmatbaho kutubxonalar yo'q bo'lib ketdi, ikkinchi tomondan, ko'plab yozuvchilar, olimlar, tarixchilar, ijodkorlar yo'q qilindi, ularning asarlari yoqib yuborildi. Aytish joyizki, Shams Qaysi Roziy, Mavlono Jaloliddin Rumiyning butun oilasi, yozuvchi va shoir Muhammad Avfiyi Buxoroyni ota-onasi va yana bir qancha donishmand kishilar mo'g'ullar hujumi oldidan o'z vatanlarini tark etib, xavfsiz hududlarga chiqib ketishgan.

Sayf Farg'oniy bunday mudhish voqealardan keyin hamma qatori o'zi ham duchor bo'lgan yomon sharoitlar tufayli ilk ta'lim olgan ona diyori Farg'onani o'z davrining boshqa allomalari kabi ilm va hikmat yo'li bilan tark etishni ma'qul ko'rgan. Quyidagi fikrlarni shoir Farg'onani tark etishining asosiy sabablaridan biri bo'la oladi, deb o'ylaymiz: "...дар ин гуна шароит зиндагонӣ кардан, албатта, тоқатнопазир аст ва яке аз сабабҳои асосии Фарғонаро тарк намуда, роҳ ба тарафи Эрон пеш гирифтани Сайфиддини Фарғонӣ низ ҳамин зулму ситами муғулҳо будааст".⁹ (Tarjimasi: ...bunday sharoitda yashash, albatta, chidab bo'lmasdi, Sayfiddin Farg'oniyning Farg'onani tark etib, Eron tomon yo'l olishining asosiy sabablardan biri ham mo'g'ullarning mana shu zulmi edi). Sayf Farg'oniyning o'z iqrorida ham ma'lum bo'lmoqdaki, mumtoz adabiyot tarixida juda ko'p siymolar jaloi vatan qilishga majbur bo'lganlar. Demak, o'sha davrdagi mo'g'ul istilosi, bir tomondan, mamlakatdagi notinchliklar, ikkinchi tomondan, ijod qilish uchun adabiy muhit va sharoitning yetarli emasligi va shunga o'xshash juda ko'p obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, Sayf Farg'oniy ona diyorini ixtiyoriy tark etishga majbur bo'lganligi anglashiladi. Albatta, buning subyektiv tomonlari ham bor, chunki Sayf Farg'oniy o'z zamonasining ilg'or fikrli, ijodiy salohiyatga ega bo'lgan vakil sifatida ilmiy ijodiy muhit hamda ilm-fan taraqqiy etgan markaziy maskanlarga intilishi ham tabiiy edi.

XIII asrning birinchi yarmida Movarunnahr va Xuroson hokimlarining tartibsizliklari tufayli fors-tojik adabiyoti va madaniyatida ma'lum darajada erkinlik vujudga kelganligini alohida ta'kidlash lozim. Ijodkorlar erkin bo'lganidan adabiyot mavzusi ham boyib ketdi. bu davrda yashab o'tgan mashhur shoirlar Sa'diy Sheroziy, Mavlono Jaloliddin Rumi, Hofiz Sheroziy, Sayf Farg'oniy, Ubayd Zokoni kabi eng buyuk fors-tojik shoirlari tarixning mana shu mudhish davrida ta'lim olganlar va yetuklikka erishganlar. Bu qadar shafqatsizlik va yovuzlik muhitida, shuncha vayronagarchilik va talon-tarojlar ichida, mo'tadil hayot oqimi jiddiy shikastlangan, to'xtab qolgan hamda tirik qolish ham katta muvaffaqiyat

⁸ Абдуллоев А. Адабиёти форсу тоҷик дар нимаи аввали асри XI. – Душанбе: Дониш, 1979. – С. 243.

⁹ Ахмадҷонов П. Рӯзгор ва осори Сайфиддин Муҳаммади Фарғонӣ // Filologiya ta'limi masalalari: muammo va uning yechimlari" mavzusidagi xalqaro-amaliy anjuman materiallari to'plami. I-qism. – Farg'ona, 2022. – B. 215.

hisoblangan bir davrda tarbiyalangan shoirlarning bunday mahoratga qanday ega bo'lganligi hali ham yechimi topilmagan muammodir. Lekin bizning bu borada o'z nuqtai nazarimiz va tahlillarimiz ham mavjud. Bosqinchilar istilosidan aziyat chekkan, parokandalikka uchragan xalqni umumiy bir maqsad yo'lida birlashtirish, ularning qalbiga taskin berish, yashash uchun umidvorlikni kuchaytirish, ertangi kunga umid bilan qarash singari hissiyotlar, tuyg'ularni uyg'otish uchun ham Sayf Farg'oniy va yuqoridagi sanab o'tgan mutafakkir-shoirlar majburiyat va burch hissini tuyar edilar. Shu ma'noda ham adabiyot va san'at parokanda xalqni birlashtirish, kerak bo'lsa, yagona bir kuchga aylantirish, ilm-fan va madaniyat atrofida jipslashtirish uchun nihoyatda muhim ekanligini ana shu buyuk allomalar chuqur anglab yetganlar. Natijada o'z davrining atoqli namoyandalari bo'lgan mumtoz adabiyot siymolari to bugungi kungacha o'zining ma'naviy, tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan ulug'vor asarlarini yaratishga muvaffaq bo'lganlar. Demak, bir tomondan Sayf Farg'oniy va uning zamondoshlari badiiy ijodning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ham ega ekanligini chuqur tushunib yetganlar va bu imkoniyatdan baholi qudrat foydalanaganlar.

Birinchi bobning ikkinchi fasli **“Tarixiy-badiiy manbalarda shoir haqidagi ma'lumotlar tahlili”** deb nomlanib, unda shoir yashagan davrni yorituvchi tarixiy-badiiy manbalar ko'zdan kechirilib, ularning ijodkor shaxsiyatini anglashda nechog'lik ilmiy ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan.

Mumtoz adabiyotshunoslik tarixi, umuman badiiy adabiyot namunalarini o'rganishga kirishar ekanmiz, ularning mualliflari haqidagi biografik ma'lumotlarni ham nazardan qochirmasligimiz kerak bo'ladi. Biografik metodning talabi ham badiiy ijod namunalarini yaratgan siymolarning tarjimayi holi, yashash tarzi, hayotiy kechinmalari asosida tahlil qilishni taqozo etadi. Chunki muallif o'z boshidan kechirgan voqea-hodisalarni, ko'nglidan o'tkazgan his-tuyg'ularni o'zining badiiy ijod namunalariga xohlama ham, xohlamasa ham singdirishiga to'g'ri keladi. Bu esa asarning hayotiylikini, badiiy-estetik ta'sirchanligini, haqqoniylikini ta'minlashdagi muhim omil hisoblanadi.

Sayf Farg'oniy XIII asrning 30-40-yillari oraliq'ida Farg'ona vodiysida tug'ilgan. Shoirning tarjimayi holi, hayot yo'li va adabiy merosini o'rganish va ilmiy tadqiq qilish uchun, birinchi navbatda, shoirning tug'ilgan joyini, to'liq ismi-sharifini, taxallusini o'rganish va topishga e'tibor qaratish lozim. O'rta asr manbalari mualliflari o'rtasida bu masala bo'yicha fikrlar juda kam. Ushbu muammoni hal qilish uchun biz, avvalo, qo'lyozma manbalarga murojaat qilishimiz zarur. Sayf Farg'oniy haqida ma'lumot berilgan eng qadimiy va tarixiy manbalardan biri – bu shoirning o'z devonidir. Shoir devonini Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasida shoirning to'liq ismi Abul Mahomid Muhammad al-Farg'oniy ekanligi ta'kidlangan:

تم هذه ديوان من انشاء امام العالم الزاهد المتقى سيد المشايخ والمحققين مولانا سيف الله والحق والدين
ابوالمحامد محمد الفرغانى نورالله روحه العزيز على يدى العبد الضعيف المحتاج الى رحمة ربه اللطيف محمد
بن على الكاتب الاقسرايى...بتاريخ يوم الاحد الثالث من ... رجب...لسنه تسع و اربعين و سبعمائة الهجرية ...

10

(Tarjimasi: Abul Mahomid Muhammad al-Farg'oniy olim, zohid, taqvodor, shayx va muhaqqiqlarning ustoz, millat, haq va din qilichidir. Alloh ruhini pok qilsin).

¹⁰ Sayf Farg'oniy. Devon. Istanbul universiteti kutubxonasi, №F171 nusxa.

Ansor Afsahov va Usmon Karimovlar tomonidan Tojikistonda nashr etilgan devon muqaddimasida esa shunday keltirilgan: “Номи шоир Сайфиддин Муҳаммад буда, бо тахаллуси Сайф ва Сайфи Фарғонӣ шеър мегуфтааст.”¹¹ (Tarjimasi: Shoirning ismi Sayfiddin Muhammad boʻlib, Sayf va Sayf Fargʻoniy taxallusi bilan sheʼrlar yozgan). Bundan kelib chiqadiki, shoirning asl ismi Sayfiddin Muhammad, otasining ismi Abul Mahomid, taxallusi esa Sayf va Sayf Fargʻoniydir. Darhaqiqat, shoir sheʼrlarida, asosan, fargʻonalik Sayf maʼnosini anglatuvchi Sayf Fargʻoniy taxallusini, baʼzan esa faqat Sayf taxallusini qoʻllagan. Agar shoirning devonidagi sheʼrlari oʻrganilsa, gʻazallarining 369 tasi Sayf Fargʻoniy, 145 tasi Sayf taxallusi, qasidalarining 57 tasi Sayf Fargʻoniy, 11 tasi Sayf taxallusi va qitʼalarining 2 tasi Sayf Fargʻoniy taxallusi bilan yozilganligini koʻrish mumkin.

Sayf Fargʻoniy taxallusiga “Fargʻoniy” soʻzining qoʻshilishi uning Fargʻona vodiysiga mansubligini aks ettiradi. Qadimdan Fargʻona tarixdagi muhim madaniyat markazlaridan biri sifatida tanilgan. Fargʻonadan koʻplab allomalar, shoirlar, yozuvchilar, mutasavvuf, mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ahmad al-Fargʻoniy Abdulabbos ibn Muhammad ibn Kasir,¹² Abu Hafs Umar ibn Muhammad Andukoniy Fargʻoniy, Abu Jaʼfar Muhammad Fargʻoniy, Shayx Saiduddin Fargʻoniy, Muhammad Sodiq ibn Abdulboqi Fargʻoniy,¹³ Bob Fargʻoniy, Abu Bakr Vositiy Fargʻoniy,¹⁴ Abu Solih Abdulaziz ibn Ubbod al-Fargʻoniy, Abu Saʼid Musʼida ibn Bakr al-Fargʻoniy, Abu Abdurahmon Qosim ibn Muhammad al-Fargʻoniy, Abul Abbos Hojib ibn Molik al-Fargʻoniy, Abul Muzaffar Mushtib ibn Muhammad al-Fargʻoniy¹⁵ kabi siymolar fargʻonalik shaxslar boʻlib, Fargʻoniy taxallusi bilan tilga olinadigan mashhur shaxsiyatlardandir. Fargʻonalik Sayf ham tepadagi Fargʻoniylar qatori Fargʻoniy taxallusini maʼqul koʻrgan. Lekin Sayfning fargʻonalik ekanligini bilsak-da, uning aniq tugʻilgan joyi va yili maʼlum emas. Chunki bugungi kunda koʻpchilik Fargʻona vodiysi deganda Oʻzbekistonning Fargʻona, Andijon va Namangan viloyatlarini tasavvur qilishadi. Aslida qadimdan Sayhun daryosining shimoli, Tyanshan va Olay togʻlari oraligʻida joylashgan va hozirgi kunda hududi Oʻzbekiston, Tojikiston va Qirgʻiziston oʻrtasida boʻlingan hudud Fargʻona vodiysi deb ataladi. Bugungi kunda Oʻzbekistonda Fargʻona viloyati mavjud boʻlib, Oʻzbekistonning muhim madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri hisoblanadi. “Jiloyi axtaroni Soʻx” tazkirasida filologiya fanlari doktori Nurullo Azimov tomonidan Sayf Fargʻoniyning tugʻilib oʻsgan joyi hozirgi Fargʻona viloyatining Soʻx tumani ekanligini aniqlashga muvaffaq boʻlganligi aytilgan.¹⁶ Ammo manbaning nomi koʻrsatilmaganligi uchun bu maʼlumotning haqiqatga qanchalik toʻgʻri kelishini aniqlash qoʻshimcha tadqiqotlarni taqozo etadi.

Birinchi bobning uchinchi fasli **“Shoir adabiy faoliyati va ijodiy merosi”** deb nomlanadi. Jahon adabiyoti tarixida fors-tojik adabiyoti alohida oʻrin tutadi. Bu adabiyot namoyandalari yaratgan asarlar yuksak mazmuni, sof falsafiy maʼnolari bilan jahon xalqlari adabiyoti xazinalaridan joy olgan. Fors-tojik adabiyoti tarixida sohibdevon shoirlar safi juda koʻp boʻlib, ularning ijodiy merosini oʻrganish

¹¹ Фарғонӣ С. Девон. – Душанбе: Дониш, 1978. – С. 3.

¹² Хошимов Қ, Нишонов С, Иномова М, Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 75.

¹³ Бухорий А. Тарикат одоблари. – Тошкент, 2003. – Б. 104.

¹⁴ Каримов С. Тасаввуф фалсафаси. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2021. – Б. 47.

¹⁵ Ас-Самъоний Абдулкарим. Насабнома (ал-Ансоб). – Тошкент, 2017. – Б. 153.

¹⁶ Ҷамолов Ҷ. Ҷилои ахтарони Сӯх. – Тошканд: Адабиёт ва санъат, 2002. – С. 5.

bugungi kungacha davom etmoqda. Biroq shu paytgacha adabiyotshunoslarimiz tomonidan XIII asrning birinchi yarmida Farg‘ona vodiysida tug‘ilib, shu yerda ilm o‘rgangan ulug‘ shoirlarimizdan biri Sayf Farg‘oniy nomi bilan mashhur Sayfiddin Muhammad Farg‘oniyning ijodiga unchalik ahamiyat berilmagan. Uning hayoti va ijodiga oid bir qancha maqolalar davriy matbuot va gazetalarda e‘lon qilingan. Lekin ijodining ayrim jihatlarigina ko‘rib chiqilgan xolos. 1959-yilga kelib turk olimi Ahmad Otash Turkiya kitobxonalaridan Sayf Farg‘oniy devoni nusxalarini topib, uning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan maqolasida shoirning devoni mavjudligini ma‘lum qiladi. Eronlik taniqli adabiyotshunos olim, doktor Zabehulloh Safo fors-tojik adabiyotining eng qimmatli asarlaridan biri hisoblangan bu devon nusxalarini qo‘lga kiritib, Tehronda uch jildda nashr ettiradi. Tojik adabiyotshunoslari Ansor Afsahov va Usmon Karimov Sayf Farg‘oniy devoni (Dushanbe, “Donish”, 1978) to‘plamini yaratdilar. Bu kitob 26 ta qasida, 2 ta qit‘a, 10 ta ruboiy va 197 ta g‘azaldan iborat. Kitob so‘zboshisida tuzuvchilar o‘z tadqiqot va mulohazalari bilan birga Zabehulloh Safo tuzgan kitobdagi ayrim noaniqliklar haqida ham ma‘lumot berishgan. O‘zbek adabiyotshunoslaridan B.Ahmedov Sayf Farg‘oniy ijodi va hayotini o‘rgangan. Tadqiqotchilar B.Ahmedovni Sayf Farg‘oniy asarini birinchilardan bo‘lib o‘rgangan o‘zbek olimlaridan biri deb, hisoblaydilar. Ishimizning asosiy manbayi bo‘lgan shoirning devoni esa 2023-yilda Ibrohim Naqqosh tomonidan nashrga tayyorlangan va mazkur devonda shoirning g‘azallari soni 582 ta (6798 bayt), qasidalari 117 ta (3300 bayt), qit‘alari 7 ta (94 bayt) va ruboiylari 23 ta (92 bayt) bo‘lib, jami 10284 baytdan iborat. Darhaqiqat, Sayf Farg‘oniy to‘tuzgan devoni ma‘lum bo‘lgunga qadar, tojik she‘riyati minbarlarida boshqa taniqli namoyandalar kabi mashhur bo‘lmagan va alohida o‘rin tutmagan.

Juda og‘ir hayot yo‘lini bosib o‘tgan va o‘z davrining atoqli shoirlaridan biri sifatida tushunilgan Sayf Farg‘oniyning devonidan boshqa hech bir asar bugungi kungacha yetib kelmaganligi va manbalarda shoir haqida boshqa ma‘lumotlar yo‘qligini hisobga olsak, uni faqat she‘riyat sohasida ijod qilgan, deyish mumkin. Haqiqatdan ham, shoirning o‘zi faqat she‘r yozganligini ta’kidlab, she‘riyatiga urg‘u beradi va o‘zidan she‘rlari meros qolishini devonida ta’kidlaydi:

Ман шоире будам, зи ман ашъор бозмонд...¹⁷

(Mazmuni: Shoir erdim, qoldi yodgor mendan ash‘or...)

Аз чаҳон рафт Сайфи Фарғонӣ,

Монд ашъор аз ӯ нишон дар вай.¹⁸

(Mazmuni: Sayf Farg‘oniy jahondan ketdi va undan she‘rlari yodgorlik bo‘lib qoldi).

Dunyoda har bir inson o‘zidan qandaydir bir iz – nishon qoldirib ketadi. Kimningdir yaxshiligi, kimningdir yomonligi avlodlar yodida qoladi. Sayf Farg‘oniy o‘z o‘tmishiga nazar tashlar ekan, she‘rlarini ko‘z oldiga keltiradi. U o‘tgan umriga achinmaydi. Zero, hayoti bu dunyoda yashab o‘tgan boshqa kishilarniki kabi izsiz ketmadi. Undan avlodlarga boy adabiy meros qoldi. Bu asarlar asrlar osha avlodlardan avlodlarga o‘tib, o‘lmas ma‘naviy durdonalar qatoridan o‘rin oldi. Shu bois shoirning yuqoridagi baytini faxriya sifatida e’tirof etish mumkin.

Sayf Farg‘oniy ijodiy merosining asosiy qismini g‘azal va qasidalar tashkil etadi. U Sanoiy G‘aznaviy, Hoqoniy Shirvoniy va, ayniqsa, Sa‘diy Sheroziyga

¹⁷ Фарғонӣ С. Девон. – Душанбе: ЭР-граф, 2023. – С. 80.

¹⁸ Фарғонӣ С. Ҷша асар. – Б. 261.

ergashgan, ularning ijodlariga e'tiqod qilgan.

Sayf Farg'oniy ijodining eng muhim xususiyati shundaki, u maddoh shoir emas. Shoir saroy shoirlaridan farqli ravishda daromad va foyda olish maqsadida shohlarni, sultonlarni, vazirlarni yoki boshqa zotlarni maqtashdan qochadi. Orif shoiri sifatida e'tiborni tortgan Sayf juda cheklangan miqdorda maqtov she'rlari yozgan, lekin u maqtovchi shoir emasligini ta'kidlagan va boshqa shoirlarga madh yozmaslikni maslahat bergan. Sayfning bu hassosligi she'rdagi quyidagicha aks etgan:

Хайру шарри кас нагуфтам аз ҳавои табъу нафс,
Мадху замми кас накардам аз барои симу зар.¹⁹

(Mazmuni: Tab'u nafsini uchun bironing xayru sharrini aytmadim, simu zar uchun kimsani madh yo malomat etmadim).

Insonning bu foniy dunyodagi eng ashaddiy dushmanlaridan biri – uning nafsidir. Zero, dunyodagi katta-kichik barcha mojarolar zamirida nafsning menligi yotadi. Shu bois haqiqiy qalam ahli hamisha o'zini nafs qutqularidan asrashi, uning ko'yiga kirib, kimlarnidir maqtab, kimlarnidir yomonlashi aslo mumkin emas. Sayf o'zini ana shu ijodiy e'tiqodida sobit qoladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**An'ana, izdoshlik va ijodiy ta'sir**” deb nomlangan bo'lib, unda shoir mansub bo'lgan adabiy muhitning mavzular ko'lami va g'oyaviy-falsafiy tizimi, saloqlar va zamondosh ijodkorlarning Sayf Farg'oniy ijodiga ta'siri masalalari ilmiy manbalarga asoslangan holda tadqiq etilgan.

Ushbu bobning birinchi fasli “**Adabiy muhitning mavzular ko'lami va g'oyaviy-falsafiy tizimi**” deb nomlangan. Sayf Farg'oniygacha va u yashagan asr adabiy asarlarini bu davr tasavvufiy asarlarisiz adabiyot olamiga taqdim etib bo'lmaydi. Shoirlar, oriflar va hatto faylasuflar ham o'z asarlarida tasavvufiy she'rlardan foydalanganlar. Tasavvuf shoirlarning fikr va tuyg'ularini o'zgacha ohang, teran va aniq mazmun bilan ifodalashda katta ahamiyatga ega bo'lgan va shu o'rinda biz Najmiddin Komilovning quyidagi fikrlariga qo'shilamiz: “Tasavvufni sof nazariyotchi olimdan va shayxlardan ko'ra shoirlar chuqurroq idrok etganlar”.²⁰ Tasavvufiy risolalarda she'rlarni keltirishdan maqsad yozuvchining fikrini aniq va uni o'quvchiga yanada ta'sirchanroq yetkazishdir.

Tasavvuf va badiiy ijodni diniy-tasavvufiy qarashlarsiz tasavvur etib va o'rganib bo'lmaydi. Sayf Farg'oniy devonida, albatta, din va tasavvufning ta'siri yaqqol seziladi. Din va tasavvuf insonning ikki markaziy, ya'ni zararsiz tarbiyaviy va axloqiy omili sifatida e'tirof etilgan. Aytish kerakki, Sayfning devonini adabiyot tarixida nodir adabiy asar sifatida qabul etish lozim. Uning devonida adolat va insofni targ'ib qilish, munofiq va mutaassiblarni tanqid qilish, hayotning adolatsizliklaridan, hasadgo'ylarning yomonligi, hukmdor va amaldorlarning qing'ir ishlaridan shikoyat qilish kabi mavzular kuzatiladi.

Shu o'rinda, professor Mamajon Mamatovning quyidagi fikrlari e'tiborga loyiq: “Olamni kezgan keng dunyoqarash sohibi Sayfiddin Muhammad Farg'oniyning so'fiyona qarashlarisiz uning asarlari tahlili to'liq bo'lishi mumkin emas. Shoir asarlarining tili, yo'li, shakli mazmunini o'rganish jarayonida biz shunday xulosaga keldikki, uning “shayxlar shayxi” (shayxishshuyux) degan ta'rifi tasodif emas. Uning she'rlari tahlili asosida musofir yurtida tasavvuf ilmining

¹⁹ Фарғонӣ С. Девон. – Душанбе: ЭР-граф, 2023. – С. 121.

²⁰ Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – С. 158.

peshqadamlaridan biri bo‘lganini, shubhasiz, ta’kidlash mumkin”.²¹

Sayf Farg‘oniyning ijodida mazmunan xojagon-naqshbandiya tariqatining ilk asoslari bayon qilingan. She’rlarida to‘g‘ridan to‘g‘ri tariqat nomi zikr qilingan baytlar uchramaydi, qaysi tariqatga mansubligi haqida ham hech qanday ma’lumotlar yo‘q, lekin tariqatga aloqador mafhumlar tez-tez qo‘llaniladi. Ayniqsa, tariqatga oid mafhumlardan e’tiborni tortadigani darvesh so‘zi bo‘lib, ko‘proq inkor va tanqid mazmunida qo‘llaniladi. Sayf jigar qoni rizqi bo‘lgan darveshlarning nomi ostida yurgan soxta, kibrli, dinor tashvishida yurganlarning xirqa va joynamozlari benamoz bo‘lgan darveshlarning nomlarini e’lon qilmasdan, ularga haqiqiy darveshlarning xirmonidan non yeyayotganlarini va haqiqiy darveshlarning himmati ularni himoya qilayotganligini bildirib, tanqid ostiga oladi:

Ба гов оранд дар хона ба аҳди ту қаҳу дона
Зи хирманҳои дарवेशон харони бефасори ту.²²

(Mazmuni: Sening ahding bilan uyga egarsiz eshaklaring darveshlar xirmonidan mollarga somon-u don tashir).

Yuqoridagi baytda keltirilgan *харони бефасори ту (egarsiz eshaklaring)* iborasida faqat buyruqni bajaruvchi toifasidagi kishilar nazarda tutilmoqda. Bu o‘rinda egar ma’lum darajada eshakni biror ishdan cheklab turuvchi vosita sifatida talqin etilsa, egarsiz eshaklar uchun esa bu cheklov amal qilmaydi. Shuning uchun ularga buyruq berilsa bas, istagan ishni amalga oshiraveradi. Darveshlar xirmonidan o‘z sohibining uyiga yem-xashak tashiyotgan egarsiz eshaklar ana shu toifadagi kishilardir.

Осмон бор шавад пушти заминро чун кӯх,
Гар ҳимоят накунад ҳиммати дарवेशонаш.²³

(Mazmuni: Agar darveshlarning himmati himoya qilmasa, tog‘ yerning yelkasiga yuk bo‘lgani kabi osmon unga yuk bo‘ladi.)

Yuqoridagi bayt mazmuniga qaraganda, shoir yashagan davrda xalqning og‘irini yengil qilib turgan ayrim darveshlar – avliyosifat kishilar ham bo‘lgan. Ularning duosi tufayli xalqning ustidan ayrim falokatlari arib turgan. Sayf Farg‘oniy baytda ana shunday zotlar haqida fikr yuritib, bu jamiyatning darveshlaridagi himmat bo‘lmasa, osmon zamin ustiga tog‘day yuk bo‘lar edi, degan xulosaga keladi va halollik, himmatlilik hamda saxovat kabi ulug‘ insoniy fazilatlarni ulug‘laydi.

Эй зи ту ҳам хирқа, ҳам сачҷотай ту бенамоз,
Дар ҳақиқат бар ману ту исми дарवेशӣ маҷоз.²⁴

(Mazmuni: Ey, seni dastingdan ham xirqa va ham sajjoda benamoz, dar haqiqat senu mening darveshlik nomimiz majoziy, xolos).

Boshqa tomondan, Sayf darveshlikni tasdiqlab, bir go‘shada qolib, darvesh bo‘lib o‘tir, darveshlardan yuz o‘girma deb, menga darveshlik saltanatini ber va meni sultonga muhtoj qilma, ko‘ngil sohibi bo‘lgan darveshlarga do‘st qil, nafsining quli bo‘lgan do‘stlarga muhtoj qilma shaklida duo qiladi.

Dissertatsiyaning 2.2-fasli “**Adabiy aloqa va ijodiy ta’sir masalalari**” deb nomlanadi. Sayf Farg‘oniy devonidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, u o‘zi uchun

²¹ Маматов М. Муҳаммад Сайфи Фарғоний ижодида тасаввуф тамойиллари. // Марказий Осие фалсафий тафаккури таракқиетида тасаввуф таълимотининг ўрни ва аҳамияти. – Бухоро, 2022. – Б. 9-12.

²² Фарғонӣ С. Девон. – Душанбе: ЭР-граф, 2023. – С. 210.

²³ Ўша асар. – Б. 150.

²⁴ Фарғонӣ С. Девон. – Душанбе: ЭР-граф, 2023. – С. 140.

peshqadam bo‘lgan shoirlarga yetib borish, ularning she‘rlarini o‘qish imkoniga ega bo‘lganini ko‘rish mumkin. U Rudakiy, Sa‘diy Sheroziy, Hoqoniy, Sanoiy, Attor, Am‘aqi Buxoroiy, Anvari, Kamoliddin Ismoil, Humomi Tabriziy kabi shoirlarning devonlarini mutolaa qilish bilan bir qatorda ularning she‘rlari ta‘sirida bo‘lgan. Lekin u she‘r yozishda nomlari keltirilgan shoirlarga o‘xshab o‘ziga xos uslubiga ega edi. Sayf Farg‘oniy devonida nomlari tilga olingan yoki ulardan iqtibos keltirilgan va biz aniqlagan shoirlar quyidagilardir:

Rudakiy. Fors-tojik adabiyotining asoschisi Abu Abdulloh Rudakiy 858-yilda Samarqandda (shuning uchun ham u ba‘zi manbalarda Rudakiyi Samarqandiy deb ham ataladi), hozirgi Sug‘d viloyatining Panjakent tumanidagi qishloqda tug‘ilgan. U fors-tojik she‘riyatining otasi va yetuk shaxsi sifatida tanilgan.²⁵

Sayf Farg‘oniy devonida Rudakiyning “Бӯи чӯйи Мулиён ояд ҳаме” nomli mashhur qasidasiga nazira shaklida yozilgan baytlarni ko‘rishimiz mumkin. Rudakiyning qasidasi quyidagicha:

Бӯи чӯйи Мулиён ояд ҳаме,
Ёди ёри меҳрубон ояд ҳаме.
Реги Омӯву дуруштӣ роҳи ӯ
Зери поям парниён ояд ҳаме...²⁶

Mo‘liyonning xush hidi kelgay buyon,
Esga tushgay yodi yori mehribon.
Ham Amuning qumlari, qumloq yo‘li,
Poyimizga yoyilar baxmalsimon...²⁷

(Samandar Vohidov tarjimai)

Nasr ibni Ahmadga bag‘ishlab yozilgan Rudakiyning bu qasidasiga javoban Sayf xuddi shu radifda ellik baytlik qasida yozgan. Shoir baytlarida o‘zi murojaat qilgan kishining nomi zikr qilinganda obi hayot og‘ziga kelishini aytib, yod olgan. Shoir qasidada bir tola sochingni maqtash qiyin, qalbimda sening otashin sevging bor deb, o‘zini egri, qiyshiq odam, deya suhbatdoshiga tavoze bilan muhabbatini yetkazgan. Farg‘oniy Rudakiyning matla‘ baytining har ikki misrasini she‘rining keyingi qismlarida iqtibos keltirgan holda ishlatgan va bu ulug‘ shoirga o‘z hurmatini ifodalagan:

Номи ту чун бар забон ояд ҳаме
Оби ҳайвон дар даҳон ояд ҳаме.
Дар тани мурда чӣ кор ояд зи чоң,
Дар дил аз ёди ту он ояд ҳаме...²⁸

(Mazmuni: Noming tilga kelishi bilan, og‘izga kelar obi hayot, O‘lik tanadagi jon ne ham qilardi? Yurakda yodingdan shu kelar hamon, Yuragimda sening savdo otashing, ko‘zlarimdagi suv shundan kelar. Endi meni bu yuz-u ko‘zimdan suv o‘rniga qon kelmoqda hamon. Kiprigimdan ko‘z yoshlarim xuddi ipga o‘tkazilgan marjon kabi kelmoqda).

Baytlar mazmunidan ko‘rinib turibdiki, Sayf Farg‘oniyning ushbu qasidasi Rudakiy qasidasidan farqli o‘laroq Xudoga bag‘ishlab yozilgan.

Sa‘diy Sheroziy. Sayf Farg‘oniy o‘zi bilan bir davrda yashagan Sa‘diy

²⁵ Рӯдакӣ А. Ашғор. – Душанбе: Адиб, 2007. – С. 30.

²⁶ Рӯдакӣ А. Бӯйи чӯйи Мулиён. – Душанбе: Адиб, 2005. – С. 4.

²⁷ <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/abu-abdulloh-rodakiy-sheerlar.html> (08.08.2023 murojaat qilindi)

²⁸ ذبیح‌الله صفا. دیوان سیف فرغانی. به تصحیح و مقدمه ذبیح‌الله صفا. انتشارات فردوسی، تهران، 1392، ص 158

Sheroziyni soʻz ustasi sifatida tilga olgan va uni chuqur hurmat qilgan. Sheʼrlarini tasdiqlash va maʼqullanishi uchun unga joʻnatgan. Devonidagi Saʼdiyga yozgan 35-, 46- va 65-raqamli qasidalaridan maʼlum boʻladiki, ular bir-birlari bilan yozishmalar olib borganlar.

Sayf Fargʻoniy vaʼz qilayotganda Saʼdiy kabi soʻzlashga harakat qilganligini, shuning uchun soʻzlayotgan paytida u yerda boʻlganlarning omadli odamlar boʻlganini, soʻz Saʼdiy kabi aytilsa, qadr topishini aytadi:

Сайфи Фарғонӣ дар вазъ чу Саъдӣ з-ин сон
Сухане гуфту бувад давлати он кас, ки шунуд.²⁹

(Mazmuni: Sayf Fargʻoniy vazda Saʼdiy kabi bir soʻz soʻyladiki, buni tinglagan kishining omadi keldi).

Sanoiy. Hakim Sanoiy 1080-yilda Gʻazninda tavallud topgan. Yoshlik yillarini ona shahrida oʻtkazib, keyinchalik Balx, Hirot, Nishopur va Hajga ham borgan. Hakim Sanoiy mashhur sohibdevon shoirlardan.³⁰ Atoqli sharqshunos olim Yevgeniy Bertels taʼkidlaganidek, Sanoiy asarlari boʻlmaganida tasavvufiy sheʼriyat Fariduddin Attor va Jaloliddin Balxiy yaratgan shakl va mazmunda rivojlanmagan boʻlardi.³¹

Sayf Fargʻoniyning zamondoshlaridan biri “Jaloliddin Rumi oʻzini Sanoiyning buyuk adabiy-tasavvufiy ijodi davomchisi ekanligini qayta-qayta taʼkidlagan va quyidagi juda mashhur boʻlgan bayt uning Sanoiyga boʻlgan eʼtiqodi va hurmatining yorqin dalilidir:

Аттор рӯҳ буду Саной ду чашти ў,
Мо аз пай Санойю Аттор омадем”.³²

(Mazmuni: Attor ruh boʻlsa, Sanoiy uning ikki koʻzidir. Biz Sanoiy va Attor izidan keldik).

Sayf Fargʻoniy ham atoqli shoir Sanoiyning ulugʻlagan va u turgan joyda undan boshqasi soʻzlashga loyiq boʻlmaydi, deb shoirni eʼtirof etgan. Fargʻoniyning devonida Sanoiy nomi ikki baytda zikr qilingan, birinchi baytda Sanoiyning Attorga nisbatan ortda qolganini ifodalagan boʻlsa, ikkinchi baytda esa bevosita Sanoiyning bir baytini iqtibos keltirib shoirni ulugʻlagan.

З-ин суханҳо, ки Саной барад аз нураш ранг,
В-ар будӣ зинда, чу гул бўй гирифтӣ Аттор.³³

(Mazmuni: Rang oldi Sanoiy bu soʻzlar nuridan, Attor agar tirik boʻlganingda gul kabi hid taratganingni koʻrar edi).

Sayf Fargʻoniyning Sanoiyga hurmatini izhor qilish uchun yozgan qasidasi devonining 93-raqamidan oʻrin olgan. Sanoiyga mansub boʻlgan “Чун сухан з-он зулфу рух гӯй, мағӯ аз куфру дин (yonoq va zulf haqida gapirsang, din va kufr haqida gapirma)” misrasini qasidasining maqtaʼ baytida ishlatar ekan, Sanoiy turgan joyda hech kim hech narsa aytolmaydi, deya sharaflagan:

Сайфи Фарғонӣ, Санойвор аз ин пас назди мо
“Чун сухан з-он зулфу рӯ гӯй, мағӯ аз куфру дин”.³⁴

(Mazmuni: Sayf Fargʻoniy, bundan keyin Sanoiydek bizning oldimizda usha

²⁹ Фарғонӣ С. Девон. – Душанбе: ЭР-граф, 2023. – С. 89.

³⁰ <https://tg.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%B0%D0%BD%D0%BE%D3%A3> murojaat qilindi 10.08.2023

³¹ Саной Ҳ. Мунтахаби ашъор. – Душанбе: Адиб, 2011. – С. 5.

³² Пиров С. Фахруддини Розӣ ва андешаҳои ахлоқиву тарбиявии ӯ. – Душанбе: Аржанг, 2015. – С. 52.

³³ Фарғонӣ С. Девон. – Душанбе: ЭР-граф, 2023. – С. 114.

³⁴ Ҷша асар. – Б. 208.

zulf-u yuzdan so‘zla, kufr-u dindan so‘zlama).

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Sayf Farg‘oniy adabiy merosining janrlari va poetik mahorat**” deb atalgan bo‘lib, shoir adabiy merosining janrlar tasnifi va poetik mahorat omillari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi birinchi fasli “**Shoir adabiy merosining janrlar tasnifi**” deb nomlangan. Sayf Farg‘oniydan qolgan adabiy meros mazmuni, tuzilishi va shakli jihatidan rang-barang va qimmatlidir. Umuman olganda, ko‘p shoirlarning ijodini ikki guruhga yoki ikki shaklga – manzum (nazm) va mansur (nasr) asarlarga bo‘lish mumkin. Aytish joizki, Sayf Farg‘oniy ijodiyotida bu ikki shakldan bizga birgina fors-tojik tilida yozilgan manzum asar, ya‘ni uning devoni yetib kelgan xolos. Sayf Farg‘oniyning devonidan boshqa asarlari mavjud yoki mavjud emasligi haqida manbalarda aytilmagan. Tadqiqotchi va mutaxassislarining fikriga ko‘ra, ushbu devon badiiyligi, ifodasi, tavsifi, turli ilmiy bilimlarni qo‘llash nuqtayi nazaridan juda yuqori saviyada yozilgan bo‘lib, u shoirning qobiliyati, iste‘dodi va salohiyatini to‘la namoyon etadi.

Sayf Farg‘oniy devoni 582 g‘azal, 117 qasida, 23 ruboiy, va 7 qit‘adan iborat bo‘lib, jami 10284 baytni tashkil qiladi. Mazkur raqamlar Sayf Farg‘oniy lirikasida g‘azal yetakchi o‘rin egallaganligini namoyon qiladi va shoir she‘riyatining janriy tasnifi jadvalda quyidagicha ko‘rinish oladi:

№	Janrlar	Soni	Hajmi (misra)
1	G‘azal	582	6798
2	Qasida	117	3300
3	Ruboiy	23	92
4	Qit‘a	7	94
Jami:		729	10284

Sa‘diy Sheroziy bilan bir asrda yashagan va ba‘zi manbalarga ko‘ra hatto Sa‘diyning do‘sti bo‘lgan Sayf Farg‘oniy o‘z devonining asosiy qismini adabiy g‘azal janrida tartibga soladi. Farg‘oniy boshqa adabiy janrlarga nisbatan g‘azal janrida yuksak ustozlik mahoratini ko‘rsatib, u orqali go‘zal va latif ma‘nolar, shoirona tuyg‘ular, yangi jozibali tasvirlar, dunyoqarash, orifona hamda ishqiy fikrlar va shu kabilarni lafziy va ma‘naviy san‘atlar bilan bezata olgan. Aksariyat adabiy manbalar mualliflari, ayniqsa, hozirgi zamon olim va tadqiqotchilari boshqa adabiy janrlarga nisbatan Farg‘oniyning g‘azal kuylash mahoratiga haqiqiy baho berganlar. Masalan, filologiya fanlari nomzodi Gulpari Sharifova “Sayf Farg‘oniy g‘azallari qalblarga iliqlik baxsh etuvchi baytlarga to‘la”,³⁵ deb ta‘riflagan.

Sayf Farg‘oniy g‘azallarini mazmuniga ko‘ra tavhid, tasavvuf, ishqiy, falsafiy, axloqiy, hasbiholiy, tavsifiy kabi turlarga bo‘lish mumkin. Sayf Farg‘oniy g‘azallarining aksariyati ishqiy va tasavvufga bag‘ishlangan. Shoir g‘azaliyotida, ayniqsa, ishq mavzusi alohida o‘rin tutadi va biz mazkur mavzuni sharhlashda uning g‘azalidan olingan quyidagi baytlar asosida fikr bildiramiz:

Мабод дил зи ҳавои ту як замон холӣ,
Ки бе ҳавои ту дил, тан бувад зи чон холӣ.
Хумои ишқи туро ҳаст ошёна дилам,
Мабод сояи ин мурғ аз ошён холӣ...³⁶

³⁵ Шарифова Г. Сайфи Фарғонӣ – подшоҳи мулки суҳан // Овози тоҷик, 2023. №30 – С. 3-4.

³⁶ Фарғонӣ С. Девон. – Душанбе: ЭР-граф, 2023. – С. 700.

(Mazmuni: Dilim orzungdan bir on ham xoli emas, agar dilda orzung bo'lmasa, jon tanamdan xoli. Ishqing ma'nosidin dil biyobonni kezmaydi, agarchi ajal, suratimdan jonni xoli qilsa ham).

Bu g'azalning asosiy mavzusi pokiza insoniy ishqning tarannumi bo'lib, u g'azalning butun baytlarida jilvalanadi. Shoir birinchi baytda (Мабод дил зи ҳавои ту як замон холӣ – Ки бе ҳавои ту дил, тан бувад зи ҷон холӣ) qalbimiz hech qachon sening havoyingdan xoli bo'lmasin, chunki uning hayoti shu havoga bog'liq, sening havoingsiz, ya'ni sening ishqingsiz mening qalbim va vujudim jondan xoli bo'ladi, deya ta'kidlamoqda va bu yerda **“havo” ishq** ma'nosida qo'llangan. Shoir keyingi baytda (Хумои ишқи туро ҳаст ошёна дилам – Мабод сояи ин мурғ аз ошён холӣ) ishq humoying oshyoni mening qalbimda va hamisha orzu qilamanki, bu saodat qushining soyasidan yuragim oshyonasi hech qachon bo'sh qolmasin, deya ishora qilgan.

Sayf Farg'oniy g'azallari ana shunday uslub namunasi bo'lib, ularda ishqiy ma'nolar badiiy tarzda uyg'unlashgan va Farg'oniy o'z his-tuyg'ularini ifodalash uchun boshqa adabiy janrlarga qaraganda g'azaldan ko'proq foydalangan.

Qasida boshqa adabiy janrlarga nisbatan Sayf Farg'oniy ijodida hajm jihatidan g'azaldan keyingi asosiy o'rinni egallaydi va shoir devonining asosiy qismini tashkil qiladi. Sayf Farg'oniyning devonida qasidaning miqdori 117 ta bo'lib, jami 3300 baytdan iborat.

Manbalardagi ma'lumotlar va zamonaviy tadqiqotchilar fikrlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning aksariyati Farg'oniyni madh qilmaydigan shoir sifatida ko'rsatganlar. Farg'oniy madh qilishdan qochganligining asosiy sababi, avvalo, uning o'z zamonasi ilmlarini bilganligi va dunyoqarashining kengligi, ilm yo'lida ko'pchilik zamondoshlaridan oldinda bo'lganligidir. Shu bois u o'z davrining boshqa shoirlariga qaraganda ko'proq e'tiborga sazovor bo'lgan, o'sha davr hokimlarining takliflariga, iltimoslariga rad javobi berib, zulm tanqidi, podshoh va amaldorlarning kirdikorlari, adolat, inson qadri va qimmatini, ilm va kasb-hunarning fazilatlarini, muhabbat, tabiat manzaralarini madh etgan va qasidalar yozgan. Mana shu mavzulardagi qasidalar sababli xalqning Sayf Farg'oniy ijodiga e'tibori oshib, shoirning qasida janriga fidoyiligining asosiy omillaridan biriga aylangan.

Shoirlar qalamiga mansub qasidalar, asosan, ikki yo'l orqali yaratilgan. Birinchisi, biror shaxsning buyrug'i yoki xohishi bilan yozilgan qasidalar va ikkinchisi shoirlarning o'z didi va xohishiga ko'ra yozgan qasidalar. Birinchi guruh qasidalarini ikkinchi guruh qasidalaridan quyiroq o'rinda turadi, chunki ular zaruratdan kelib chiqib yozilgan va, tabiiyki, bunday qasidalar shoirlarning hayajoni va qiziqishini uyg'ota olmagan. Lekin shoirlarning o'z ixtiyori bilan yozgan qasidalarini ularning yuksak didini namoyon etadi va bu yo'l bilan yozilgan qasidalar yuqorida aytilganlardan farq qiladi. Sayf Farg'oniyning qasidalarini ikkinchi guruh qasidalariga mansubdir. Chunki Sayf Farg'oniy qasidalarining aksariyati madhiya xarakteriga ega emas va bunday qasidalar mazmuni shoirning madh va ta'rif qilish uchun qasida yozishga majbur bo'lmaganligini ko'rsatadi. Qolaversa, Sayf Farg'oniy saroy shoiri bo'lmagan, umrining ko'p qismini xalq orasida o'tkazgan.

Sayf Farg'oniyning qasidalarini 7 baytdan 87 baytgacha bo'lgan hajmni tashkil qiladi. Shu nuqtayi nazardan uning ijodidagi bu janrni uch guruhga – qisqa, o'rta va uzun guruhlarga bo'lish mumkin. Biz 7 baytdan 30 baytgacha bo'lgan qasidalarini

qisqa qasidalar, 30 baytdan 50 baytgacha bo‘lgan qasidalarini o‘rta qasidalar va 50 baytdan ortiq qasidalarini uzun qasidalar guruhiga kiritdik. Farg‘oniy devonidagi uzun qasidalar soni ko‘p emas, ular bor-yo‘g‘i 14 ta, o‘rta qasidalar soni 26 ta, qisqa qasidalar soni esa 78 tani tashkil etadi.

Sayf Farg‘oniy qasida yaratishdagi faoliyatining yana bir xususiyati shundaki, u fors-tojik adabiyotining buyuk adiblari kabi bu adabiy janrning shakl va mazmun nisbati (tanosub), vazn va boshqa xususiyatlarining tuzilishida o‘z mahoratini namoyon etib, shakl va mazmun birligini yuqori darajaga olib chiqqan. Husni maqta’ yoki Sayf Farg‘oniy qasidalarining oxiri, ko‘pincha, shariat talablari va duolarini o‘z ichiga oladi va ular shoir qasidalarining alohida xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shoir qasidaning maqta’ qismidan tinglovchining yetarlicha zavq va dam olishini, qasidani tinglash orqali ko‘ngli taskin topishini anglagan holda bu qismga alohida ahamiyat berib, uni juda mahorat bilan, hatto yuksak saviyada yaratgan. Sayf qasidalarining yakuniy qismi boshqa qismlaridan ko‘ra ko‘zga ko‘ringan va badiiyyoq ko‘rinadi. Masalan:

Имрӯз золим, ар чу тавонгар азиз бошад,
Фардо-т хортар зи гадоёни кӯ намояд.³⁷

(Mazmuni: Agar bugun zolim futuvvat ahriday aziz bo‘lsa, ertaga xorlardan ham xor bo‘lgay).

Farg‘oniy qasidalarini janr tuzilishi va mazmun jihatdan katta yangilikka ega bo‘lmasa ham, uni fors-tojik adabiyotining boshqa yirik qasida ijodkorlari qatoriga qo‘yish va bu adabiy janrdagi mavqeyini e‘tirof etish adolatdandir.

Dissertatsiyaning 3.2-fasli **“Poetik mahorat omillari”** deb nomlangan. Shoirlik mahoratining uzluksiz jihatlaridan biri badiiy san’atlardan foydalanish hisoblanadi. Sayf Farg‘oniy ham boshqa shoirlar singari obraz yaratuvchi unsurlardan foydalanishda mohirdir. U mohirlik va zukkolik bilan badiiy san’at usullaridan foydalangan, fikr takrorlashdan hamisha o‘zini uzoq tutgan. Uning bu harakatlari, eng avvalo, yangidan yangi ma’nolarni yaratishga qaratilgan. Binobarin, shoir o‘z fikrlarining rang-barang bo‘lishi uchun ma’lum uslublardan foydalangan. Sayf Farg‘oniy boshqa shoirlar qatori ijodkorlikning muhim unsurlaridan biri bo‘lgan badiiy san’atlarni ko‘p qo‘llagan va shu orqali she’riyatining jozibadorligi, mazmunlilik, ta’sirchanligi va go‘zalligini ta’minlagan. Shu ma’noda Sayf Farg‘oniy she’riyatida badiiy san’atning ko‘plab turlari qo‘llangan bo‘lib, jumladan, tashbeh, istiora, talmeh, mubolag‘a, tazod, tashxis kabi san’at turlarini sanab o‘tish mumkin. Sayf tilga olingan har bir san’atdan foydalanishda o‘zining shoirlik mahoratiga xos bo‘lgan, fors-tojik adabiyotining boshqa shoirlarida kam ko‘zga tashlanadigan yo‘llarni tanlagan.

Sayf Farg‘oniy she’riyatida tashbeh badiiy san’ati muhim o‘rin tutadi. Tashbeh (o‘xshatish) – nazmiy va nasriy asar tilida ko‘p qo‘llaniladigan ma’naviy san’atlardan biridir. Tashbeh hozirgi o‘zbek tilida, asosan, “o‘xshatish” deb yuritiladi.

Sayf qo‘llagan tashbehtar adot (o‘xshatish vositalari) va boshqa badiiy tasvir vositalari bilan uyg‘unlashuviga ko‘ra muhim xususiyatlarga ega. Sayf tashbehtar adot yoki predmetlarning o‘xshashligini ko‘rsatish jihatidan ikki turga bo‘linadi: sareh (ochiq o‘xshatish) va muzmar (yashirin o‘xshatish), ya’ni adot – o‘xshatish vositalari orqali qilingan tashbehtar va mazkur vositalarsiz qilingan tashbehtar.

³⁷ Фарғоний С. Девон. – Душанбе: ЭР-граф, 2023. – С. 95.

Sayf she'rlari matnida har ikki turdagi tashbehlar keng qo'llanilgan. Sayf qo'llagan tashbehlarda *гӯяд, мисоли, монӣ, монад, пиндорӣ, чу, чун, чунон, чунонки (чунон-к), ҳамчу, ҳамчунон* kabi so'z va birikmalar adot sifatida ishlatiladi. Sayf she'riyatidagi barcha o'xshatishlar ichida “чу” va “чун” so'zlari ko'proq qo'llangan. Masalan, quyidagi baytda ham “чу”, ham “чун” o'xshatish vositalarini qo'llagan holda yor ko'yida o'zini gadoga va gulzorda o'tirgan bulbuldek tasvirlaydi:

Аё дар кӯйи ту **чун** ман гадое
Чу булбул баҳри гулзор истода.³⁸

(Mazmuni: Ayo, seni ko'yingda gulzordagi bulbuldek gadoman).

Sayf Farg'oniy ijodida ham an'anaviy timsollar uchrab turadi. Mazkur baytdagi gul va bulbul ana shunday timsollardandir.

Sayf Farg'oniy fikrni to'liqroq va aniqroq gavdalantirish maqsadida bir tushunchani boshqa tushunchaga o'xshatish vositalarisiz (adot) qiyoslanadigan yopiq tashbehdan ko'p foydalangan. Misol uchun quyidagi baytda bo'y sarvga, zulf shabistonga, yuz quyosh va oyga o'xshatiladi:

Чу қадду зулфи ту дидам, кунун рӯи туро гӯям,
Ки хуршед аст бар сарвеву мохе дар шабистоне.³⁹

(Mazmuni: Qadd-u zulfing ko'rdim, sening yuzingni sarv uzra quyoshga va qaro tundagi oyga o'xshatdim).

Ma'shuqa qaddini sarvga, zulfini qora tunga, yuzini kunduzi quyosh va tunda to'lin oyga o'xshatish an'anaviylikdir. Sayf Farg'oniy ana shu an'anaviylik asosida ma'shuqaning go'zal portretini chizadi.

So'zlarni majoziy qo'llash usullaridan biri istiora orqali yangi mazmunlar yaratishdir. “Istiora majozning bir turi bo'lib”,⁴⁰ “Madorij-ul-balog'a” kitobida “Маънои луғавии истиора ба орият хостани чизе аст”⁴¹ (Istioraning lug'aviy ma'nosi biror narsani oriyatga olmoqdir) deyiladi. Oriyat so'zining ikki ma'nosi bo'lib, bu joyda uyat, sharm, nang ma'nosida emas, balki “чизеро барои истифода муваққатан аз касе гирифта”⁴² (foydalanish uchun birovdan vaqtinchalik biror narsani olmoq) ma'nosida keladi. Shu ma'noda, istiora terminologik ma'noda shunday so'zki, turli, ammo o'xshash ma'noni ifodalash uchun bir-birining o'rnida ishlatiladi. Boshqacha qilib aytganda, istiorada “...ikki hodisaning o'xshashligiga asoslanib, so'z majoziy ma'no kasb etadi. Ya'ni istiora tashbehga juda yaqin, to'g'rirog'i, u yopiq tashbehning keyingi rivojlanishi asosida yuzaga keladi”.⁴³ Shunga ko'ra Arastu istiorani tashbehning bir turi deb atagan.

Sayf Farg'oniy she'rlarida istioraning har ikki turi ochiq va yopiq tarzda kuzatiladi. Farg'oniy she'rlaridagi ochiq istioralar oy, quyosh, sarv va shunga o'xshash bo'lib, ularning aksariyati takrorlanib turadi va ularda Farg'oniyning tashabbuskorligi unchalik sezilmaydi. Biroq bu o'rinda alohida e'tiborga loyiq jihat, mazkur istioralardan foydalanish usulida Sayf Farg'oniyning o'ziga xos uslubi va shirin so'zlashuvi birinchi o'rinda turadi. Ifoda uslubining ayni o'ziga xosligi

³⁸ Фарғонӣ С. Девон. – Душанбе: ЭР-граф, 2023. – С. 654.

³⁹ Фарғонӣ С. Девон. – Душанбе: ЭР-граф, 2023. – С. 705.

⁴⁰ Ходизода Р, Шукуров М, Абдучабборов Т. Фарҳанги истилоҳоти адабиётшиносӣ. – Душанбе: Ирфон, 1966. – С. 36.

⁴¹ Ҳидоят Р. Мадориҷ-ул-балоға (дар илми бадеъ). – Шероз: Матбааи Муҳаммадӣ. – 1331 х. – С. 12.

⁴² Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. Ҷилди 2. – Душанбе: Пажӯҳишгоҳи забон ва адабиёти ба номи Рӯдакӣ, 2008. – С. 33.

⁴³ Занд М. Шесть веков славы. – Москва: Наука, 1964. – С. 83.

shoirning ochiq istioralariga toza rang bag'ishlab, takrorlansa-da, o'quvchi nazdida yangicha jilva beradi. Jumladan, quyidagi baytda shoir **оу** (моҳ) so'zini istiora sifatida qo'llab, ma'shuqaga murojaat qilgan:

Бар осмони суратат, эй **моҳи** некӯвон,
Истора эмин аст ба рӯз аз зихоби ҳусн.⁴⁴

(Mazmuni: Surating osmonida ey mahvash, yulduz osudadir husning jilosidan).

Sayf Farg'oniy go'zal ma'nolarni va his-tuyg'ularni ifodalashda ham ochiq istioradan o'z o'rnida mohirona foydalangan. Quyidagi misolda dilbarning yuzi gul, pista, bodom va qandga to'la tovoqqa o'xshatilgan, ya'ni ruhsor o'rniga gul, og'iz o'rniga pista, ko'z o'rniga bodom va lab o'rniga shakar istiora sifatida kelgan:

Дӯш дар маҷлиси мо буд зи рӯйи дилбар
Табақе пур зи гулу пиставу бодому шакар.
Зикри он пиставу бодом мукаррар накунам,
Шакараш қути равон буду гулаш ҳаззи назар.⁴⁵

(Mazmuni: Yaqinda bizning majlisimizda dilbarning yuzidan bir tabaq to'la gul, pista, bodom va shakar. Lek bu yerda pista va bodom zikrini qilmayman, shakar lazzati ravon edi-yu gul esa nazarining tig'i singari edi).

Shoir she'rlaridagi istioralarni takroriyligi va o'ziga xosligiga ko'ra alohida ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga takroriyligi jihatidan seziladigan istioralar kiradi. Ehtimol Sayf Farg'oniy ularni o'zidan oldingi shoirlar ijodidan oriyatga olgan bo'lishi ham mumkin. Jumladan, "даррахти ақл" (*aql daraxti*), "гӯшу дил" (*yurakning qulog'i*), "чаъми дил" (*yurakning ko'zi*), "майдони ишқ" (*ishq maydoni*), "санғи маломат" (*malomat toshi*), "камони абрӯ" (*qosh yoyi*), "дасти карам" (*himmat qo'li*), "меваи ишқ" (*ishq mevasi*), "мурғи дил" (*yurak shavqi*), "дарёи ишқ" (*ishq daryosi*) [Сайфи Фарғонӣ. Девон. Бо таҳия ва тадвини Иброҳими Наққош. – Душанбе: "ЭР-граф", 2023. 268, 270, 278, 280, 281, 303, 308, 316, 317, 320] kabi istioralar shu guruhga kiradi, chunki ularning namunalarini boshqa shoirlar she'rlarida ham ko'rish mumkin. Biroq, "теғи бода" (*shamolning ta'siri*), "қисвати раъноӣ" (*botiniy go'zallik*), "дафтари доноӣ" (*donolik daftari*), "дили гунча" (*g'unchaning dili*), "хаданғи мижа" (*nazarning tig'i*), "хори меҳр" (*mehr tikani*), "қавси абрӯ" (*qosh qavsi*) [Сайфи Фарғонӣ. Девон. Бо таҳия ва тадвини Иброҳими Наққош. – Душанбе: "ЭР-граф", 2023. 269, 288, 289, 295, 307, 313, 321] kabi istioralarda shoir ijodidagi o'ziga xos yangilik seziladi. Chunki ularning aksariyati shoir izlanishlari mahsuli bo'lib, uning yorqin adabiy faoliyatidan dalolat beradi.

XULOSA

1. Sayf Farg'oniy mumtoz adabiyotning buyuk shoirlaridandir. Uning hayoti XIII va XIV asrning boshlariga to'g'ri keladi va bu davr O'rta Osiyoning mo'g'ullar tomonidan talon-taroj qilinishi sababli eng notinch davrlardan biri hisoblanadi. Movarounnahr va Xuroson o'lkalarini boshqargan Muhammad Xorazmshoh mo'g'ullar bosqiniga yetarlicha qarshilik ko'rsata olmadi. Zero, uning davrida go'yoki Xorazmshohni qo'llab-quvvatlagan mahalliy hokimlar va mansabdorlarning o'zaro ichki nizolari va tartibsizliklari ostida mamlakat bo'linib ketgan va bu birlikka emas, balki davlatning parchalanishiga olib kelgan. Muhammad

⁴⁴ Фарғонӣ С. Девон. – Душанбе: ЭР-граф, 2023. – С. 612.

⁴⁵ Фарғонӣ С. Девон. – Душанбе: ЭР-граф, 2023. – С. 488.

Xorazmshohning mo'g'ullar bosqiniga bardosh bera olmaganligining asosiy sabablaridan biri ham shu bilan bog'liq.

2. Sayf Farg'oniy hayoti va ijodiy faoliyatining asosiy qismini ona shahridan tashqarida, ya'ni Tabriz va Oqsaroy shaharlarida o'tkazib, o'sha davr adabiy jarayonida munosib qatnashadi. Lekin tarjimai hollarida, tazkiralarda nomi tilga olinmaganligining asosiy sabablaridan biri, uning o'z shahrini tark etib, bir muddat Tabrizda yashagani va keyinchalik hozirgi Turkiyaning Oqsaroy shahrida qo'nim topganligi va o'z ona shahriga qaytib kelmaganligidir. Tarixdan ma'lumki, yozuvchi va mutafakkir Shayx Fariduddin Attor Chingizxon askarlari qo'lida shahid bo'lgan, Shams Qaysi Roziy, Mavlono Jaloliddin Rumi va uning oilasi, yozuvchi va shoir Muhammad Avfiy Buxoroiyning ota-onasi va yana bir qancha donishmand kishilar esa mo'g'ullarning halokatli hujumidan o'z vatanlarini tark etib, xavfsiz hududlarga chiqib ketishgan va shular qatori Sayf Farg'oniy ham o'z ona yurtini ilm-hikmat yo'lida tark etib, qaytib kelishga muyassar bo'la olmagan, deb hisoblaymiz.

3. Adabiy-tarixiy va boshqa manbalarda Sayfning ismi, ota-onasi, ota-bobolarining ismi, taxalluslari va boshqa faxriy unvonlari masalasi munozarali masalalardan biri bo'lib, hozirgacha yagona nuqtayi nazar mavjud emas. Manbalar, ayniqsa, Sayf devonining Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasida hamda mahalliy va xorijlik tadqiqotchilarning maqolalari va ma'lumotlarini qiyoslash natijasida shoirning asl ismi Sayfiddin Muhammad, otasining ismi Abul Mahomid, taxallusi esa Sayf va Sayf Farg'oniy ekanligi ma'lum bo'ldi. Umuman olganda, bu shoirning nom-nasabini quyidagicha o'qish mumkin: Abul Mahomid Sayfiddin Muhammad al-Farg'oniy. "Farg'oniy", albatta, uning she'riy taxallusidir, chunki u ko'p g'azallarining oxirida bu taxallusni tilga olgan va bu taxallus, ya'ni "Farg'oniy" shoirning, shubhasiz, Farg'ona vodiysiga mansubligi, uning tug'ilib ulg'aygan, bilim olgan maskani ekanligini bildiradi.

4. Tazkiralari va boshqa tarixiy manbalarda Sayf Farg'oniyning tug'ilgan yili haqida ma'lumotlar berilmagan va bu masala borasida hozirgi tadqiqotchilarning fikrlari ham aniq emas. Biz Sayf Farg'oniy devonidagi baytlarni tahlil qilish va tadqiqotchilarning fikrlarini qiyoslash orqali shoirni XIII asrning 30 va 40-yillari oralig'ida tug'ilgan, degan taxminiy xulosaga keldik.

5. Farg'oniyning oilasi, ayoli, farzandlari va boshqa qarindoshlari borligi haqida adabiy va tarixiy manbalarda ma'lumotlar yetarli emas. Faqatgina asosi keltirilmagan birgina manbada shoirning Tabrizda yashagan davrida hokim Shamsiddin Juvayniy (tarixchi Atomalik Juvayniyning ukasi) yordami bilan oila qurganligi zikr etilgan xolos. Shoir devonida esa yolg'izlik urg'usi aks etgan baytlar ko'zga tashlanadi va biz bu baytlarga asoslanib, uni go'shanishinlikni afzal ko'rgan, deyishimiz mumkin.

6. Adabiyot ahliga Sayf Farg'oniy nomi bilan yashab ijod qilgan shoir haqida to'g'ri turk olimi Ahmad Otashning Turkiya kutubxonalarida Sayf Farg'oniy devoni nusxalari borligini e'lon qilguniga qadar (1959-y), deyarli, hech qanday ma'lumotlar mavjud emas edi. Ungacha bo'lgan davrda Abulqosim Kozaruniyning "Sullam-us-samovot" tazkirasida faqat Sayf Farg'oniyning nomi va Fuvotiyning "Talxis majmua al-adab fi-mu'jam al alqob" ("Har xil laqab-taxallusli adiblar to'plamining xulosasi") asarida shoirning taniqli shoirlardan bo'lganligi aytilgan xolos. Biz Sayf Farg'oniyning o'z ona shahrini tark etib, bir muddat Tabrizda, keyinchalik Oqsaroyda qo'nim topganligi va o'z shahriga qaytib kelmaganligini, Farg'ona-Tabriz-Oqsaroy

hududlari bilan har tomondan aloqalar ancha zaiflashib qolganligini, davrning nihoyatda murakkab va notinch bo'lganligini, qolaversa, she'rlari keskin tanqidga to'raligi va mansabdor shaxslarni madh qilishni istamaganligini tarjimayi hollarda va tazkiralarda nomining tilga olinmaganligining asosiy sabablaridan deb hisoblaymiz.

7. Olib borilgan tadqiqotlar jarayonida Turkiya hamda Tojikistonda nashr ishlari uchun asos bo'lgan qo'lyozmalar ham sinchiklab o'rganildi. Turli manbalarni qiyosiy o'rganish hamda tahlil etish shoir ijodiy merosi haqida xolis va to'laqonli tasavvur beradi.

8. Sayf Farg'oniyni adabiy merosi qasida, g'azal, qit'a va ruboiy janrlaridan iborat bo'lib, ular orasida g'azal asosiy o'rinni egallaydi. Ishimizning asosiy manbai bo'lgan Ibrohim Naqqosh tomonidan tayyorlangan devonda shoirning g'azallari soni 582 ta (6798 bayt), qasidalar 117 ta (3300 bayt), qit'alari 7 ta (94 bayt) va ruboiylari 23 ta (92 bayt) bo'lib, jami 10284 baytdan iborat.

9. Ma'no va mazmun nuqtayi nazaridan Sayf Farg'oniyni she'riyatida uning dunyoqarashi, ijtimoiy fikrlari, ba'zan ilmiy-falsafiy qarashlari ham ifodalangan. Shoirning adabiy merosini o'rganish shuni ko'rsatdiki, u o'zi qo'llagan adabiy janrlarning shakl va tuzilishiga hech qanday o'zgartirish yoki yangilik kiritmagan, balki o'zidan oldingi shoirlarning an'alarini davom ettirgan.

10. Sayf Farg'oniyni she'rlarining aksariyatini g'azal janri tashkil etadi. G'azallari mazmun-mohiyati jihatidan Sa'diy Sheroziy g'azallariga ko'proq o'xshaydi. Shoir murojaat qilgan lirik janrlar tasnifini jadval asosida taqdim etish shoir adabiy merosining ko'lami va janr xususiyatlari haqida tasavvur va tushunchalarni yanada oydinlashtiradi.

11. Shoir ijodida qasida janri g'azaldan keyingi asosiy o'rinni egallaydi. Qasidalarining miqdori 117 ta bo'lib, jami 3300 baytni tashkil etadi. Sayf Farg'oniyni qasidalar 7 dan 87 baytgacha bo'lgan hajmni tashkil qilgani bois, biz uning ijodidagi bu janrni uch guruhga – qisqa, o'rta va uzun guruhlarga bo'ldik va 7 baytdan 30 baytgacha bo'lgan qasidalar qisqa qasidalar, 30 baytdan 50 baytgacha bo'lgan qasidalar o'rta qasidalar va 50 baytdan ortiq bo'lgan qasidalar uzun qasidalar guruhiga kiritdik. Natijada Farg'oniyni devonidagi uzun qasidalar soni 14 ta, o'rta qasidalar soni 26 ta, qisqa qasidalar soni esa 78 tani tashkil etdi. Sayf Farg'oniyni qasida yozishda, asosan, Sanoiy, Hoqoniy, Anvariyni va Sa'diy Sheroziylardan ilhom olgan. Uning qasidalarida, asosan, tabiat va atrof-muhit tasviri, axloqiy fikrlar bilan bir qatorda davrning ijtimoiy holati, xususan, zahmatkash xalqning hayoti aks etgan. Shu jihatdan biz Sayf Farg'oniyni qasida janrining xalqchil bo'lishidagi xizmatlari katta deb hisoblaymiz. Chunki boshqa shoirlarning qasidalarida Sayf Farg'oniyni qasidalaridagidek o'z davrining zahmatkashlari hayoti tom ma'noda tasvirlanmagan.

12. Shoir she'riyatining go'zalligi badiiy san'atlardan mohirona foydalanish natijasida ortgan. Uning mazmun va ma'no yaratishdagi yangiliklarini, ko'pincha, u qo'llagan tashbeh, talmeh, istiora, mubolag'a va boshqa badiiy san'at turlarida ham ko'rish mumkin. Shoirning "Zabur", "Tavrot", "Injil" kabi muqaddas diniy kitoblardan foydalanganligi, eng avvalo "Qur'on" oyatlari va hadislardan bahramand bo'lganligi uning badiiy san'atlar orqali teran ma'nolar yaratishida zamin bo'lib xizmat qilganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

**ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL ON THE BASIS OF SCIENTIFIC
COUNCIL FOR AWARDED SCIENTIFIC DEGREES
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 AT FERGANA STATE UNIVERSITY**

FERGANA STATE UNIVERSITY

AKHMADJONOV PARVIZJON MAKHAMADZODA

**LITERARY HERITAGE OF SAIF FARGHANI AND HIS POETIC
RESEARCH**

**10.00.05 - Language and literature of Asian and African peoples
(Tajik language and literature)**

**ABSTRACT
of the doctor of philosophy (PhD) dissertation on PHILOLOGY**

Fergana – 2025

The theme of PhD dissertation is registered by the Supreme Attestation Commission under the number B2022.2.PhD/FIL.2504

The doctoral thesis has been prepared at the chair of Uzbek linguistics of Fergana State University. The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of Scientific Council and the information-educational portal «Ziyounet» (www.ziyounet.uz)

Scientific supervisor:	Isomiddinov Farhod Candidate of Philological Sciences, Associate Professor.
Official opponents:	Matluba Mirzoyunus (Khojaveva) Doctor of Philology, Professor, Khojakulov Sirojiddin Kholmakhmatovich Doctor of Philology, Associate Professor.
Lead organization:	Termez State University

Defense of the dissertation will take place on 27 03 2025 at 11:00 at a meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Phil.05.02 under Fergana State University (Address: 105, B.Marginoni street, Fergana, 100151. Tel.: (+99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

The dissertation is available in the information and Resource Center of Fergana State University (registered under № 472). Address: 19, Muzabbiylar str, Fergana, 100151. Tel.: +99873 244-44-94.

The abstract of the dissertation is distributed on 11 03 2025.
(Mailing report No. 11 dated 11 03 2025).



S. M. Muminov
Chairman of Scientific Council
awarding scientific degree,
Doctor of Philological Sciences, Professor.

M. T. Zokirov
Secretary of the Scientific Council,
awarding scientific degree,
Candidate of Philological Sciences, Professor.

A. G. Sabirdinov
Chairman of the Scientific Seminar at the
Scientific Council, awarding scientific degree,
Doctor of Philological Sciences, Professor.

INTRODUCTION (annotation of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD))

The relevance and necessity of the dissertation work. In global literary studies, the eminent scholars of the East occupy a distinguished position due to their significant contributions to the evolution and perfection of artistic thought, as well as to the spiritual and intellectual advancement of humanity. Imparting the universal ideas enshrined in their spiritual heritage as moral and ethical values to the consciousness of the younger generation is among the urgent tasks of contemporary society. Consequently, the application of classical literary traditions in the restoration of today's cultural, literary, and historical values, particularly in fostering the spiritual maturity of the younger generation, is of paramount importance. In particular, the life and intellectual journey of the renowned Eastern thinker Sayfiddin Muhammad Farg'oni, along with his literary legacy and his spiritual, philosophical, ethical, and mystical perspectives that guide individuals toward perfection, underscore the importance of educating youth in humanistic principles such as moral integrity, compassion, generosity, and altruism. Similarly, in the field of foreign literary studies, research into the representatives of Eastern literature and their spiritual legacy, including the publication of their manuscript works, remains an ongoing and significant endeavor.

In the field of world literary studies, it is noteworthy that the scholarly activities of Eastern thinkers, who made monumental contributions to the history of scientific progress, and the integration of their rich spiritual heritage into various spheres of social life have been given special attention. In particular, employing the noble ideas embedded in the works of creative figures of past centuries to meet the cultural and spiritual needs of the present era has become increasingly significant. Furthermore, a deep exploration of the poetic characteristics, artistic and expressive means, as well as the literary forms and genres of artistic works, remains one of the fundamental tasks of literary studies.

During the years of independence, comprehensive efforts and reforms have been implemented in our country to deeply study the literary heritage of our great ancestors and to promote it among the younger generation. These initiatives aim to cultivate respect for national and universal values among young people and to shape them into the architects of our future. As our President has emphasized: "The unparalleled and unique scientific and spiritual heritage of our great ancestors must become a guiding principle for our continuous progress. This eternal legacy should always remain close to us, providing strength and inspiration at every step."⁴⁶ In New Uzbekistan, the focus on studying, researching, and promoting our national literature has significantly intensified. The fundamental essence of the Address by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan embodies the prioritization of human interests: "First – the individual, then – society and the state." "We must deeply embed these ideas into our new Constitution, our laws, and our daily lives."⁴⁷ In this context, it is of

⁴⁶ Мирзиёев Ш.М. Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир // Халқ сўзи. 1 октябрь 2020 йил. -№207 (7709)

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 21.12.2022. <https://www.xabar.uz/jamiyat/>

great importance to thoroughly study the literary heritage of Sayfiddin Muhammad Fargʻoniy, a 13th-century scholar and poet, and to explore the true essence of the ideas he advanced from the perspective of contemporary times.

The implementation of this dissertation contributes, to a certain extent, to the tasks outlined in several key normative and legal documents, including the Presidential Decree No. PF-5847 of November 8, 2019, “On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan Until 2030”; Presidential Decree No. PF-6108 of November 6, 2020, “On Measures for the Development of Education, Training, and Science in the New Era of Development in Uzbekistan”; and Resolution No. PQ-2789 of February 17, 2017, “On Further Improvement of the Activities of the Academy of Sciences, Organization, Management, and Financing of Scientific Research”. Additionally, the dissertation aligns with other significant resolutions, including No. PQ-2909 of April 20, 2017, “On Measures for Further Development of the Higher Education System”; No. PQ-3271 of September 13, 2017, “On the Comprehensive Program of Measures for the Development of the System of Publishing and Distribution of Books, Promotion of Reading and the Culture of Book Reading”; No. PQ-3721 of May 12, 2018, “On Organizing Reading Competitions Among Youth to Promote and Study the Creative Heritage of Great Scholars, Writers, and Thinkers”; and No. PQ-5040 of March 26, 2021, “On Radical Improvement of the System of Spiritual and Educational Activities”. These decrees, along with other related normative and legal documents, form a framework within which this research work seeks to contribute to achieving the specified objectives.

Compliance of the study with the priorities of the development of Republican Science and technology. The research has been conducted within the framework of the Republic’s priority direction for the development of science and technology I. The research has been carried out within the priority direction “Social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information-based society and a democratic state, along with the advancement of an innovative economy.”

The degree of study of the problem. In the history of global literary studies, no comprehensive scholarly research has been conducted to provide an in-depth scientific analysis of the life and works of Sayf Fargʻoniy. Many historical sources, including biographical collections (*tazkiras*) written during his lifetime and in subsequent periods, lack sufficient information about him. Only Abulqosim Kozaruni, in his biographical collection “*Sullam-us-Samovot*,”⁴⁸ mentions Sayf Fargʻoniy alongside Sayf Nishapuri and Sayf Isfarangiy, while providing an evaluation of Sayf Isfarangiy's poetry. Additionally, the renowned historian Fuvati, in 660/1261-62, briefly refers to Sayfiddin Muhammad Fargʻoniy as one of the prominent poets in his work “*Talxis Majmua al-Adab fi-Mu’jam al-Alqob*” (“*Summary of the Collection of Writers with Various Titles*”), but does not offer any detailed information about him.⁴⁹

⁴⁸ Kozaruniy A. *Sullam-us-samovot*. Rossiya Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg boʻlimi xazinasining yozma nusxasi, 684-raqam. 91-92-varaq.

⁴⁹ Аҳмедов Б. Сайфуддин Муҳаммад Фарғоний. – Тошкент: Қизил Ўзбекистон, Правда Востока ва Ўзбекистони Сурх бирлашган нашриёти, 1962. – Б. 3.

In foreign countries, the personality, scholarly-creative activity, and spiritual heritage of Sayf Farg‘oniy have also attracted the interest of researchers. The initial studies on Sayf Farg‘oniy began after Turkish scholar Ahmed Ateş published an article in 1959, revealing the existence of copies of Sayf Farg‘oniy's *Diwan* in Turkish libraries.⁵⁰

